ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

O‘SMIR YOSHLARNI RAQAMLI MANIPULYATSIYADAN HIMOYA QILISHDA AXBOROT-PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudayberganova Sharofat G’ofurjon qizi- Xorazm viloyati pedagogik Mahorat Markazi “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirishning o ‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.
Axborot sohasidagi manipulyatsiyalardan yoshlarimizni himoyalash va ularning havfsizlikni ta`minlash muammosi ham e’tirof qilingan.

Kalit so`zlar: raqamli manipulyatsiya, himoya,axborot, munosabat, individual yondashuv, shakllantirish, fenomen, jarayon,xususiyat, psixologik xavfsizlik.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности формирования информационно-психологической устойчивости в защите подростков от цифрового манипулирования.
Также была признана проблема защиты нашей молодежи от манипуляций в информационной сфере и обеспечения ее безопасности.

Ключевые слова: цифровое манипулирование, защита, информация, отношение, индивидуальный подход, формирование, явление, процесс, характеристика, психологическая безопасность.

Abstract: This article presents the specific features of the formation of informational and psychological stability in protecting adolescents from digital manipulation.
The problem of protecting our youth from manipulations in the information sphere and ensuring their safety is also recognized.

Keywords: digital manipulation, protection, information, attitude, individual approach, formation, phenomenon, process, characteristic, psychological safety.

Bugungi kunda axborot oqimi juda keng tarqalgan bo`lib, har taraflama rang-barang ma`nolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin. XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho`qqiga yetgan asr hisoblanadi. Shuning uchun xam XXI asrni axborot asri deb ta`kidlashmoqda.

Axborotga quyidagicha ta`rif berish mumkin - axborot manbalari va takdim etilish shaklidan qat`iy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar,hodisalar va jarayonlar to`g`pisidagi ma`lumotlar majmuidir.

Tig`iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" aloqadorligi, ularning o`zaro uzviyligi va yaxlitligini ta`minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgan va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o`zgarishiga sabab bo`lmoqda.

Bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma`lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson topish mumkin. Jumladan, buzg`unchilik, tajovuzkorlik, noaxlokiy xulqni shakllantiruvchi ma`lumotlar ham anchagina. Ayniqsa, bunday manbalar o`sib kelayotgan

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

yosh avlodlar ongiga ta`sir ko`rsatayotganligi juda achinarli holdir.Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot, psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat`iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi.

Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko`p bo`lsa, hadik va ishonchsizlik shuncha ko`payadi. Ana shunday ma`naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo`naltirib, boshqarib turishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik bu- bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o`zini- o`zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma`naviy-ma`rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Ommaviy axborot tizimi ayni paytda ochiq axborot tizimi hisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida axborot tarqatishni ma`lum davlatdan yoki bir joydan turib, nazorat qilib, tartibga solib bo`lmaydi. Shuning uchun ham bu tizim ochiq ommaviy axborot tizimi deb nomlanadi.Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va unda berilayotgan axborotlarning oshkoraligi, dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat extiyoji sifatida namoyon bo`lishi va axborotlarning shaxs hayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi.

Axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish kafolati bu, bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga dahldor bo`lgan qadriyatga aylanmog`i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish,jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta`sir etuvchi ijtimoiy,milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi,zo`ravonlik va urushni targ`ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg`unlik,shaxslar mavqei, obrusi va sha`niga salbiy ta`sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog`liq bo`lgan, sog`lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma`naviy-ruxiy me`yorlarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“....globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma`noni anglatishini ta`kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma`no – mazmundagi xo`jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy - biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.
Shu ma`noda, globallashuv – bu avvalo hayot sur`atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”.[1]

Milliy xususiyatlarimiz, an`ana, qadriyatlarimizni mensimaydigan axborotlar shiddat bilan hayotimizga kirib kelmoqda. Bu o`z-o`zidan axborot sohasidagi manipulyatsiyalardan himoyalanish yoshlarimizni himoyalash va ularning havfsizlikni ta`minlash muammosini kun tartibiga qo`ymoqda. Axborot xurujlarining quyidagi turlari mavjud:

- yolg`on axborot tarqatish;
- ijtimoiy ongni monipulyasiya qilish;
- milliy-ma`naviy qadriyatlarni yemirib tashlash;
- etti yot begona ma`naviy qadriyatlarni singdirish;

-xalqning tarixiy xotirasini buzish va o`zgartirish;

[1] I.Karimov .Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 111bet

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asrida , "... hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan yoshlarimizning dunyoqarashi, siyosiy va ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi tobora kuchayib borayotganida "[2] ... ularni turli tahdidlar, ayniqsa, informatsion tahdidlar iskanjasiga tushib qolishlariga yo`l qo`ymasligimiz zarur.

O`zbekiston Respublikasida ham axborotlashtirish jarayonlarida bosqichma- bosqich, keng ko`lamdagi katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Insoniyat jamiyatining har bir yangi bosqichi tarixga munosabatni yangidan ko`rib chiqishni talab etadi. Ma`naviy hayotdagi yangi hodisalar umumiy bo`lib kelgan tushuncha va o`lchamlarni guyoki inkor etgandek bo`ladi. Biroq shu o`rinda ta`kidlash lozimki, tarix "chig`irig`i"da o`z sinovidan o`tgan, barcha davrlar va xalqlarga xos bo`lgan umuminsoniy qadriyat va mezonlar tizimi mavjud bo`lib, ular orqali har qanday yangi davrda avval kuzatilmagan hodisalarning o`lchami va andozasi chiqariladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yoshlar tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlar o`z g`arazli niyatlarini amalga oshirishni ko`zlagan shaxslarning asosiy ma`lumot olish quroli hisoblanadi.

Hozirgi davrda axborot xurujlari qo`yidagi maqsadlarni ko`zlagan holda tajovuz va urinishga aylanib bo`lgan.

* O`z axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda axborot muhitini nazoratga olish;
* Axborot hujumlarini olib borish uchun nazorat qilinayotgan axborotlardan foydalanish.

Quyidagi vositalar esa, odatda jahon miqyosida axborot quroli sifatida qaraladi:

- axborot manbalarini yo`q qilish, buzish va o`g`irlash;
- himoyalanish tizimini aylanib o`tish;
- kompyuter tizimi texnik vositalari ishlashini buzib tashlash;
- kompyuter viruslari;
- axborot ayirboshlashni yo`q qiluvchi vositalar .

Shunday axborot xurujlari ta`sirida, "... ayrim yoshlar ichki dunyosida vujudga keladigan ruhiy inqiroz va tanglik, ularni hayotda uchraydigan muammolarga, voqea va hodisalarga jiddiy, ob`ektiv munosabatda bo`lishlarini taqozo etadi "[3]. Shunday bo`lsada bu davrda yoshlarda uzoqni ko`ra olmaslik, ehtiyotsiz xatti - harakatlarga moyillik, dalillarga tayanib emas balki emotsional hissiyotlarga berilib ish ko`rish kabi holatlarning kelib chiqishi kuzatiladi. Ushbu holatlardan kelib chiqib, dilga yaqin so`zlar orqali yoshlarning ichki dunyosiga ta`sir etish mumkinligi hamda ularning negativ his – tuyg`ularga nisbatan immuniteti birmuncha beqarorligini doimo nazarda tutish kerak.

O'smir yoshlar ongida media madaniyatni shakllantirishda ommoviy axborot vositalarining rolini yanada oshirish lozim deb o`ylaymiz.

1. Ommoviy axborot vositalari orqali yoshlarining diqqat va xotirasida chuqur iz qoldira oladigan tarbiyaviy ko`rsatuvlarni tayyorlash;
2. Shunday ko`rsatuvlar orqali yoshlarda o`z -o`zini tahlil qila olish qobiliyatini shakllantirish;
3. O`zlaridagi mustaqil fikrlarida sobitqadamlik qila olishga o`rgatish.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi.

Xalq ovozi. №1. 2018 yil.

[3] Quronov M. Mafkura, ta'sirchanlik va uslub. Voizga yordam:ma'ruza matni. -T.: Ma'naviyat, 2000. —12 б.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-5

Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalar ko`p ishlatilayotganligi aholini axborot xurujidan himoyalash bo`yicha choralar ko`rish muhimligini yanada oshiradi. Ushbu muammoning dolzarbligi yana shundaki, hozirgi o‘smir yoshlarning ongi shakllanishida ma`lum darajada ommaviy axborot voqealarining faoliyati va axborot resurslarining ta`siri kuchlidir.

Shuning uchun, ayniqsa ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot-psixologik xavfsizligi bilan bog`liq muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada oshadi. Ayni vaqtda, axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlarni himoyalash va rivojlantirish, shuningdek, global axborot makonida davlatning manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish yolida foydalanish juda muhim.

O‘smir yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilishda axborot-psixologik barqarorlikni shakllantirish masalasi juda katta va muhim ahamiyat kasb etadi.Shu sababli ularga quyida ko ‘rsatilgan tavsiyalar bo ‘yicha tushunchalar berib borish maqsadga muofiqdir.

1.Manipulyatsiya holatiga tushib qolgan o‘smir yoshlarni eshitishga harakat qiling;

2. Uning muammosini yechishga bevosita yordam berish juda muhim;

3.Manipulyatsiya holatiga informatsion xuruj orqali psixik ta`sirlanishlarga tushib qolgan shaxsni chalg`itish yoki psixologik himoya mexanizmini yaratishga hamda shaxsning yengil tortishi uchun imkoniyat yarating;

4.Raqamli manipulyatsiyalarga beriluvchi o‘smir yoshlarga psixologik maslahat va ustanovkalar bering;

5. Raqamli manipulyatsiyalardan o`z-o`zini himoyalashda nimalarga e`tibor qaratish lozimligi to`g`risida ma`lumotlar berib boring.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Karimov I.A Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T.: “ Ma`naviyat ” –T.: 2008.-176 b.

2.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning yangi yil tabrigi. Xalq ovozi.2018 yil

3.Quronov M. Mafkura,ta`sirchanlik va uslub.Voizga yordam: ma`ruza matni.T.:Ma`naviyat,2000,-12 b.

4.Umarov B., Axmedova M. Axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Ijtimoiy-gumanitar oliy ta`lim yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent. 2013 y.